

To‘g‘ri soliqlarning ilmiy-nazariy tahlili

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchi

PhD Xo‘jakulov Ramshid Yunusovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq-siyosatini takomillashtirish, byudjetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamli usullarini qo'llash takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, mahaliy byudjet, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o‘rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish. Davlat byudjeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat’iy nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet daromadlarining lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Bu vazifa soliq siyosatini to‘g‘ri yuritishda hamda byudjet defitsitini qoplash usullarini tanlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi taraqqiyotning hozirgi bosqichida respublikamizda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish, tashabbusli byudjetni joriy etish bilan bog‘liq masalalarini hal etish uchun ularning daromad manbalarini to‘g‘ri proqnoz qilish orqali ularning daromadlarini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘tish mezonini birinchi marta XVII asr soliqlar borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan ingliz faylasufi Jon Lokk har qanday soliq undirilganidan kelib chiqib, oxir - oqibat yer egasiga tushadi, chunki faqat er egasining daromadi haqiqatan ham barcha soliqlarni to‘laydigan sof daromaddir. Keyinchalik, Shotlandiya iqtisodchisi va faylasufi A. Smit ishlab chiqarish omillariga (er,

mehnat, kapital) asoslanib, yer egasining daromadini kapital va mehnat daromadlari va shunga mos ravishda ikkita to‘g‘ri soliq-tadbirkorlik daromadlari va ish haqi bilan to‘ldirdi. A.Smitning yondoshuviga ko‘ra, “bilvosita soliqlar xarajatlar bilan bog‘liq va iste’molchiga o‘tkaziladigan soliqlardir”¹. Darhaqiqat bu vaqtarda iqtisodiy ta’limotlarning Fiziokratlar oqimining g‘oyalari ustun bo‘lib, ular asosan yer barcha boyliklarning asosi va davlat g‘aznasining ham muhim manbai sifatida yerdan keladigan daromadlarga alohida urg‘u berganki, daromadlarni soliqqa tortish esa, mazmunan to‘g‘ri soliqlarning mavjudligini taqozo qiladi. O‘z navbatida A.Smit esa to‘g‘ri soliqlar bilan birgalikda egri soliqlarning ham ahamiyati bilan shug‘ullangan va yuqorida keltirganimizdek, egri soliqlar xarajatlar sababli iste’molchilar zimmasiga tushishini dastlabkilardan tushuntirib berdilar.

Ingliz iqtisodchisi, faylasufi va jamoat arbobi Jon Styuart Mill to‘g‘ri va egri soliqlarning guruhanishi va ularning mohiyati haqida kengroq ilmiy tadqiqot olib borgan olimlardan hisoblanadiki, uning ta’biricha “to‘g‘ri soliq - bu qonun chiqaruvchidan soliq to‘lovchiga o‘tishi kerak bo‘lgan soliq, egri soliq to‘lovchi tomonidan boshqa shaxsga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan soliqliqdir.”² Keyinchalik uning J.Millning izdoshi bo‘lgan nemis iqtisodchisi Adolf Wagner tomonidan ham to‘g‘ri soliqlar xususidagi ilmiy tadqiqotlarining xulosasi va qarashlari ham J.Millning ilmiy qarashlariga anchayin mos kelar edi. Bu ikki olimning ilmiy qarashlari A. Smitning to‘g‘ri soliqlar borasidagi yondoshuvlariga mazmunan yaqinroq edi.

Yana bir soliq nazariyasi bilan shug‘ullangan nemis olimi Atbert Sheffleining to‘g‘ri soliqlarning mohiyati va ahamiyati bilan bog‘liq tadqiqotlari ancha ahamiyatlidir. Ushbu olim bu boradagi tadqiqotlarida soliqlar guruhash bilan shug‘ullanib, soliqlarni egri soliqqa taqsimlashda soliq to‘lovchining soliq va to‘lov qobiliyati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligi bo‘yicha tasniflashni to‘g‘ri deb hisobladi. Shunday qilib, u “davlat shaxsning o‘rtacha soliq

¹ Аникин, А.В. Юность науки: Жизнь и идеи мыслителей - экономистов до Маркса [Текст] : учебное пособие / А.В. Аникин. - М.: Политиздат, 1985. - 110 с.

² Столяров, И.А. Антология экономической классики. В 2-х т.: Т.1 [Текст] : учебное пособие / И.А. Столяров. - М.: Эконом, 1993. - 254 с.

yukini qo'llaydiganlarni" to'g'ri soliqlar, faqat individual soliq to'lovchini aniqlash uchun davlat barcha fuqarolarga soliq soladi, chunki ular o'z daromadlarini toplash va iste'mol qilish aktlarida aniqlaydilar va bu egri soliqlar"³ deb hisoblaydi.

Albert Delatur "to'g'ri soliqlar faqat normal va doimiy ma'lumotlar asosida, egri soliqlar faqat ma'lum faktlar asosida undiriladi"⁴ deb hisoblasa, Fransuz iqtisodchisi De Fovill esa "to'g'ri soliqlar barqarorlik, doimiylik yoki hech bo'limganda davomiylik (mavjudlik, madaniyat, kasb) xususiyatiga ega, egri soliqlar harakat, haqiqat, almashinuv va yig'im, qoida, tariflar orqali undiriladi"⁵ degan g'oyani ilgari surgan, o'z navbatida nemis iqtisodchisi Neyman esa, "to'g'ri soliqlar kadastr bo'yicha, egri soliqlar tariflar bo'yicha undiriladi"⁶ deb hisoblagan, ushbulardan farqli o'laroq, italiyalik iqtisodchi F.Nitti o'zining "Moliya fanining asosiy prinsiplari" asarida: "egri soliqlar mulkning sifatiga emas, balki vaziyatga, shaxsiy faktlarga va doimiy harakatlarga ta'sir qilish bo'lsa, to'g'ri soliqlarda davlat fuqarolarning soliq layoqati to'g'risida bevosita asoslar (egalik, daromad) bo'yicha xulosa chiqaradi; egri soliqlar harakatlar (iste'mol, almashinuv) bilan belgilanadi, shuning uchun to'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri soliq manbai bo'lib xizmat qiladi, egri, asosan ma'lum munosabatlar, iste'mol yoki muomalaga ta'sir qilishi mumkin"⁷ deb to'g'ri va egri soliqlarning o'zaro nisbat xususiyatlarini keltiradi.

Soliq nazariyasi bo'yicha keyingi davrlarda ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus olimi M.R. Pinskayaning bu boradagi ilmiy qarashlari ham o'z mohiyatiga egadir. Uning fikricha, "soliqlarni belgilash usuli va undirilish usuliga ko'ra soliqlar to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bo'linadi. Ushbu tasnif doirasida bo'linmalar ham mavjud. To'g'ridan-to'g'ri soliqlar, o'z navbatida, shaxsiy va real (maqsadli) bo'linadi. Shaxsiy to'g'ridan-to'g'ri soliqlar haqiqatda olingan daromaddan to'lanadi va soliq sub'ektining haqiqiy to'lov qobiliyatini aks ettiradi. Bularga

³ Шовапский С.И. Косвенное обложение в теории и практике. Одесса. 1892. С. 16

⁴ Иловайский СИ. Косвенное обложение в теории и практике. Одесса. 1892. С. 10.

⁵ Сачофа В. Косвенные налоги и подоходный налог. СПО., 1907. с. п.

⁶ Самофалов В. Косвенные налоги и подоходный налог. 1907. с. 32

⁷ Нитте Ф. Основные принципы финансовой науки. 1907. С 248

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yuridik shaxslarning daromad solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulki solig'i, jismoniy shaxslarning mol-mulki solig'i va boshqalar kiradi. Real to'g'ridan-to'g'ri soliqlar ma'lum bir soliqqa tortish ob'ektidan olingan o'rtacha daromadga bog'liq. Bularga yer solig'i, transport vositalari egalaridan olinadigan soliq va boshqalar kiradi"⁸.

Oxirgi ikki-uch yilda respublikamiz soliq tizimida to'g'ri soliqlarga oid mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu borada dotsentlar D.Abdullaev, Z.Axrarov, X.Zaripov, Sh.Qiyasov, A.Agzamovlar tomonidan ushbu soliqlarning mohiyati va ularni undirish mexanizmlari bilan bog'liq ilmiy ishlar olib borilganligini ko'rish mumkin. Xususan, D.Abdullaev o'z tadqiqotlarida "soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlar tarkibini bekor qilish asosida foyda solig'ini hisoblash soddalashtirish zarurligi asoslangan, foyda solig'i bo'yicha ekologiya, sog'lomlashtirish, xayriya va bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladigan mablag'lar uchun berilgan imtiyozlarni bekor qilish orqali byudjetga qo'shimcha mablag' jalb qilish asoslagan, foyda solig'i bo'yicha korxonalar tomonidan tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bu bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni chegirilmaydigan xarajatlar tarkibiga kiritish taklif"⁹ini ishlab chiqqan. Yuqorida to'g'ri soliqlarning mohiyati, mazmuni va xususiyatlariga oid iqtisodchi olimlarning ilmiy yondoshuvlarini ilmiy tahlil asosida tanqidiy umumlashtirish to'g'ri soliqlarning mohiyatini aks ettiruvchi mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqishga asos bo'ldi. Shu jihatdan olganda to'g'ri soliqlar deganda soliqqa tortish ob'ektlaridan kelib chiqqan holda turli darajadagi byudjetlarga belgilangan soliq bazasining bir qismini soliq to'lovchining faoliyati natijalaridan kelib chiqib, soliq to'lovchilarning o'zlari tomonidan hisoblab byudjetga to'lanadigan soliqlar tushuniladi. Fikrimizcha, to'g'ri soliqlarning yuzaga kelishida manufakturaning yuzaga kelishi ham alohida rol o'ynagan. Agar

⁸ Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения / Под научн. ред.д.э.н., проф. В.С. Барда: Монография. – М.: Издательство «Палеотип», 2004. – 78 с.

⁹ Абдуллаев Дилмурод Алияр ўғли. Иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини таъминлашда юридик шахслар фойдасини солиққа тортиш тартибини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т. 2021 й

mohiyatiga qaraganda “manufaktura — bu mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo‘lmagan sharoitdagi kooperatsiya bo‘lib, unda ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi, yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi, oddiy kooperatsiyadagidek qo‘l mehnatiga asoslangan quroqla tayanadi. Shuningdek, u mehnat taqsimoti va qo‘l hunari texnikasiga asoslangan korxona”¹⁰ bo‘lib, sanoat taraqqiyotining oddiy kooperatsiyadan keyingi 2-bosqichi hisoblanadiki? G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI asrning o‘rtalarida vujudga kelib, bu davlat g‘aznasining daromad manbasi sifatida sanoatlashgan korxonalarida yuzaga kelgan daromadlarni va ularga tegishli mulklardan soliqlarni joriy etishni yuzaga keltirdi. Bu esa, jamiyatda sanoatlashuvi bilan birga soliq to‘lovchining o‘zidan to‘g‘ri tartibda undirilishiga asoslangan yangi daromad manbalarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shundan kelib chiqish aytish mumkinki, manufakturalar ham to‘g‘ri soliqlarning yuzaga kelishining muhim iqtisodiy omillari bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar:

Soliqlarning turli xil xususiyati va mohiyatiga ko‘ra turlanishi birinchidan, soliqlarning mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilsa, ikkinchidan, soliqlarning guruhlanishi davlatning iqtisodiyotni tartiblashda, soliq to‘lovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda soliqlarning rolini va ularidan qanday foydalanish mumkinligini ko‘rsatib beradi, uchinchidan, soliqlarning guruhlanishi byudjet tizimi byudjetlarining daromad manbalarini aniqlashda, ular o‘rtasida munosabatlarni tartiblashda, soliqli moliyaviy resurslarini to‘g‘ri taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqishga imkoniyat tug‘diradi, to‘rtinchidan, soliqlarning fiskal ahamiyatini aniqlash orqali davlat byudjetiga soliq tushumlarini muayyan darajada proqnoz qilish ob’ektivligini ta’minlashga xizmat qiladi, beshinchidan esa, milliy iqtisodiyotdagi predmet, jarayon va munosabatlarni soliq ob’ekti sifatida belgilashni to‘g‘ri amalga oshirishga imkoniyat tug‘diradi, demakki, soliqlarni guruhlash bir tomondan nazariy asosiga ega bo‘lsa, boshqa tomondan soliqqa tortish jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishda amaliy ahamiyatga

¹⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Manufaktura>.

egadir.

Manba va foydalanilshgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.
2. Xo‘jaqulov Ramshid Yunusovichning “Byudjet daromadlarining shakllantirishda to‘g‘ri soliqlarning ahamiyatini oshirish” (phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.